

HARBIY XIZMATCHILAR ORASIDA AXBOROT HURUJLARI VA TAHDIDLARNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI

Turobov Abdurasul Xaqberdi o‘g‘li

Harbiy xizmatchi

Oripov Sirojiddin Salimjon o‘g‘li

Harbiy xizmatchi

“Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot, axborot huruji, harbiy xizmatchilarining axborotdan to‘g‘ri foydalanishi, ijtimoiy tarmoqlardagi provokatsion tushunchalarining mohiyati, axborot hurujlarining manbalari, ularni ijtimoiy muhitda amalga oshish usullari va ularga qarshi harbiy xizmatchilar orasida kurashish yo‘llari, axborotni muhofaza qilishning maqsadi, tahdidlarning kelib chiqishi, ularning sababi, axborot tizimidagi zaifliklar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot, axborot huruji, psixologik usul, ommaviy ma’daniyat, harbiy usul, ijtimoiy tarmoq, maxfiylik rejimi.

“Axborot huruji” deyilganda muayyan kuchlarning o‘z siyosiy maqsad va muddaolarini amalga oshirish yo‘lida eng avvalo mafkuraviy omillar, shuningdek, m oddiy va ma’naviy ta’sir o‘tkazish orqali kishilar ongi, qalbiga yot g‘oyalarni singdirishni, ularning hissiyotlari, e’tiqodi, tuyg‘ulariga ta’sir etishni, turmush tarzi, mentalitetidagi o‘zgarishlarni amalga oshirishni ko‘zlovchi xatti-harakatlar majmuasi tushuniladi. Davlatning o‘z jamiyati xavfsizligini ta’minlashi vazifasi nuqtai nazaridan olganda, axborot hurujlari axborot xavfsizligini buzish xavfini solgan sharoit va ijtimoiy omillar yig‘indisidir.

Bugun global o‘zgarishlar ta’sir o‘tkazmagan biror sohani topish qiyin. Ayniqsa, insonlar o‘rtasidagi muloqotning kuchayib ketishiga bu jarayonning qo‘sheyotgan hissasi haqida yetarlicha dalillar mavjud. Ayni davrda zamonaviy dunyoni axborot texnologiyalarisiz, ya’ni internet tizimining ijtimoiy tarmog‘isiz tasavvur etib bo‘lmaydi, chunki ular allaqachon hayotimizning bir qismiga aylanib ulgurgan. Bir necha yillar oldin internet haqida, virtual muloqot haqida tasavvurga ega bo‘lmagan odamlar hozir muloqotning eng oson va har taraflama qulay yo‘liga o‘tishdi. Bu muloqotning qulayligi shundaki, u hech qanday masofani tan olmaydi. Shuningdek,

joy, muhit va boshqa sub'ektiv jihatlarsiz onlayn muloqotni ta'minlaydi. Qizig'i shundaki, bunday muloqotda nafaqat suhbatlashish, balki, turli ma'lumotlar almashish, har qanday savolga javob topish, nimadir sotish va sotib olish, turli xorijiy tillarni o'rganish, hattoki muayyan mablag' ishlab topish uchun ham imkoniyatlar mavjud. "O'rgimchak to'ri"ning takomillashuvi esa "ijtimoiy tarmoq" tushunchasining paydo bo'lishi va shakllanishiga zamin yaratdi.

Ko'pchilik ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirgan ma'lumotlarini har kim topishi va har doim ham yaxshi niyat bilan ishlatmasligi mumkinligini anglamaydi. Ijtimoiy tarmoqlardagi shaxs haqidagi ma'lumotlarni ularning ish beruvchilari, qarindoshlari, qarz yig'uvchilar, jinoyatchilar va boshqa manfaatdor shaxslar topishlari mumkin. Jinoiy va terroristik guruhlar ham osongina yoshlarni va harbiy xizmatchilarni ijtimoiy tarmoqlardan topadilar va ular bilan yaqinlashadilar, bu esa mamlakatimiz xavfsizligiga jiddiy ziyon yetkazishi mumkin.

Ba'zi mamlakatlar harbiy xizmatchilar va hukumat vakillariga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni ta'qiqlagan —bu nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy balki, ma'lumotlarning tarqalishini oldini olish va ichki xavfsizlik nuqtai nazaridan uchun ham amalga oshiradilar. Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilishga qaramlik tufayli psixosomatik kasalliklar paydo bo'lishi holatlari kuzatilgan.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish xavfi mavzusi turli so'rovnoma o'tkazilgan, jumladan:

- AQShning 16 shtatida so'rovnoma o'tkazilib, ijtimoiy tarmoqlardan kelib chiqadigan ikkita asosiy "qo'rquv" bor, degan xulosaga kelindi: jinsiy zo'ravonlik va ma'lumotlarning maxfiyligi.
- Daniyada davriy nashrlarning tahlil qilib, M. Larsen eng ko'p tilga olinadigan ijtimoiy media muammolari ro'yxatini tuzadi, jumladan: jinsiy zo'ravonlik va pedofiliya, qo'rqtish va ta'qib qilish, tahdid va zo'ravonlik, millatchilik g'oyalari tarqalishi.
- K. Fuks nemis va avstriyalik talabalar orasida o'tgan onlayn so'rovnomadan quyidagi xavflar ro'yxatini oldi: ma'lumotlarning maxfiyligi, spam, shaxsiy ma'lumotlarni yo'qotish ehtimoli, salbiy imidj yaratish, internetga qaramlik.
- S. V. Bondarenko Rossiya janubidagi virtual tarmoq hamjamiyatlarini o'rganib, deviant xatti-harakatlarning quyidagi shakllari mavjud degan xulosaga keldi: xakerlik, maxfiylikni buzish, tuhmat, kiberterrorizm, kompyuter pedofiliyasi.
- GU-VShE portalida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, respondentlarning fikriga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar odamlarni "o'z domiga tortib ketmoqda" va juda ko'p vaqt oladi, jonli aloqani siqib chiqarmoqda va "keragidan ortiq muloqot va ma'lumotlar" bilan ta'minlab beradi. "Maxfiylik masalalari, — deyiladi hisobotda, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarini eng kam tashvishga solmoqda. Bu turdag'i qo'rquvlari

maxfiy xizmatlarning ishi bilan emas, asosan, [spamerlar](#) kontakt ma'lumotlariga oson ega bo'lishi imkoniyati mavjudligi bilan bog'liq"

Bugungi kunda mashhur bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifasiga ega bo'limgan insonni topish qiyin. Ayniqsa, bu holatning yuqori darajasini yoshlar orasida ko'rish mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, dunyo yoshlari, jumladan mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlod asosiy vaqtining taxminan 50 foizi virtual muloqotga sarflanmoqda. Gap shundaki, ko'pchilik yoshlar o'z hayotlarini ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaydilar.

Hozirgi kunda yer yuzida 2,8 milliarddan ortiq internet foydalanuvchilari mavjud bo'lib, shu jumladan Xitoyda 500 million, Rossiyada 50 million, O'zbekistonda 10,5 milliondan ortiq foydalanuvchilar ro'yxatga olingan. Endilikda ijobiy yoki salbiy mazmundagi axborotlarning global tarmoqqa chiqishi uchun bir soniya yetarli. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi mafkuraviy tahdidlarga e'tibor qaratilganda quyidagi ma'lumotlarga duch kelamiz: «Mutaxassislarning qayd etishicha, "ISHID", "Al-Qoida" kabi terrorchi tashkilotlar o'z targ'ibotining 99 foizini internet orqali amalga oshiradi. Terrorchilar o'zlariga tegishli veb-sahifa va ijtimoiy tarmoqlarda "shahidlik", "jihod", "hijrat", "takfir", "xalifalik" kabi tushunchalarni buzib talqin qilish natijasida juda ko'p yoshlar to'g'ri yo'ldan adashib ketayotganini aytish muhim. Bugungi kunda terrorchi g'oyalarni targ'ib qiladigan 1100 dan ortiq internet saytlari aniqlangan bo'lib, ularning asosiy nishonlari yoshlar va harbiy xizmatchilardir.

Ekstremistik oqimlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan keng foydalanish, internet tizimining ijtimoiy tarmog'i orqali turli tillarda targ'ibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoalar tuzishga harakat qilmoqdalar. Masalan, yirik terrorchi tashkilotlar o'z saflariga faol tarzda ijtimoiy tarmoqlar orqali, asosan, 17- 35 yosh oralig'ida bo'lgan kishilarni yollamoqda. Bunda psixologik ta'sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoq a'zolarining sahfalari, qo'yilayotgan rasmlar, sharh va izohlar hamda olib borilayotgan suhbat va mavzularni puxta o'rganadi va shu asosida "nishon"ga olingan shaxsga mavzuga oid materiallar internetning "Facebook", "Odnoklassniki", "Vkontakte", "Instagram", "Telegram", "WhatsApp" va "X" (sobiq "Twitter") kabi keng auditoriyaga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali (yozma xabar, matn, fotosurat, stiker rasmlar, audio-video rolik) jo'natiladi va o'zaro aloqa yo'lda qo'yiladi.

Shuning uchun harbiy xizmatchilar ijtimoiy tarmoqdan foydalanishda shahsiy va xizmat sirlarini saqlashi, harbiy kiyim va obyektlarda tushgan rasmlaridan foydalanmaslik, maxfiylik rejimiga qattiy amal qilishlari kerak.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarimizning kelgusi kamolotiga zarar yetkazuvchi ko'pgina ma'naviy tahdidlarni vujudga keltirdi. Ulardan: Muqaddas dinimizni niqob

qilib, o‘zlarining g‘arazli maqsadlariga erishish yo‘lida internet tizimining ijtimoiy tarmog‘idan foydalanayotgan noqonuniy oqimlar sonining ko‘payib borishi natijasida yoshlarimiz bilib- bilmay ularga qo‘shilib qolmoqda.

Dunyoda g‘oyaviy hamda informatsion xurujlar, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlarimiz ma’naviyatini yuksaltirish, ularning tafakkurida sog‘lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish eng muhim vazifadir. Bunday murakkab va tahlikali davrda ma’naviy –ma’rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish quyidagilarga bog‘liq: yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon – atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, zo‘rlik bilan joriy etish oqibatida xalqaro maydondagi ziddiyat va qarama– qarshiliklar kuchayib borayotgan bir vaziyatda o‘zimizning kelajak strategiyamizni aniq belgilab olish, g‘animlarning g‘arazli urinishlari nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab olish va keng jamoatchilikka yetkazish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch va osoyishta hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy g‘oya targ‘iboti va mafkuraviy jarayonlarning amaliy ishlari va ijobiy natijalarini yoshlarga tushuntira bilish, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi” ekanligi to‘g‘risidagi qarashlarining mazmun-mohiyatini har bir fuqaroga, xususan, yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish zarur.

XXI asr boshlariga kelib, dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to‘liq himoyalanib olgan birorta ham davlat yo‘q deb to‘la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan o‘zaro turishga intilayotgan, ularga a’zo bo‘lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas (KXDR). Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta’siriga ko‘proq uchrab qolishmoqda. Bunday g‘ayri ixtiyoriy ta’sir esa ko‘pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Bugun jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan globallashuv har bir davlat, xalq, millat, yoxud insoniyat ma’naviyatida yangicha ma’no-mazmun kasb etmoqda. Jamiyat rivojida har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo‘lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Lekin mana shunday yutuqlar bilan birligida globallashuv ayrim xalqlarning milliy g‘oyasi, mafkurasi, e’tiqodi va o‘tmish merosiga ham ma’naviy tahdid solayotganligini unutmasligimiz lozim. Hozirgi davr dunyo g‘oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo‘lib borayotgan davrdir. Dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universal texnologiyalar bilan bog‘liq umumbashariy jarayonlar jadallahib bormoqda. Bunday sharoitda mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va

harakatlar ham yo‘q emas. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va fundamentalizm, irqchilik va diniy eksteremizm mafkuralari shular jumlasidandir. Natijada dunyoda inson qalbi va ongini egallah uchun kurash tobora kuchayib bormoqda.

Globallashuv jarayonida internet yangi aloqaviy vositadir. Globallashuv jarayonida kishilar internetdan xohlagan manbani topadi. Internet ko‘pchilikni birlashtiradi yoki ajratishi ham mumkin, bundan tashqari agressiv maqsadda ishlaydi, ya’ni u mafkuraviy urush quolidir, buni ilmda “kiberterrorizm” deyiladi.

Aslida axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o‘zaro muloqoti uchun, ilm-fan va ma’daniy boyliklarni o‘zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir.

Mamalakatimizga nisbatan amalga oshirilgan va oshirilayotgan axborot hurujlarining asosiy maqsadi – davlat va xalq o‘rtasida ishonchsizlikni, aholida shubha, ikkilanish, parokandalik, tartibsizlikni keltirib chiqarishdir.

Respublikamizning birinchi Prezidenti muhtaram Islom Karimov “...bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega” ekanligini ta’kidlagan edi. Mafkura poligonlarida kuchlar nisbati esa axborot va axborot xuruji vositasida hal etilmoqda.

Axborot xurujlariga qarshi kurashda kurashning tizimli bo‘lishligi, uning zarur huquqiy bazasi shakllantirilganligi o‘ta muhim. Shu bois axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan alohida qonun hujjati qabul qilish masalasi ko‘rib chiqilishi kerak.

Hammamizga ayon bo‘lishi kerakki, “axborot asri” deb nom olgan XXI asrda hech qaysi davlat yoki jamiyat o‘zini temir devor bilan o‘rab yashay olmaydi. Ayni paytda, ahvol shunday ekan, deb qo‘l qovushtirib o‘tirish ham to‘g‘ri kelmaydi, bunday tahdidlarga javoban, biz ham, sodda bo‘lmasdan, zarur chora-tadbirlarni ko‘rishimiz kerak.

Umuman, bugungi kunda internet tizimining ijtimoiy tarmoqlari salbiy ta’sirining oldini olish uchun yoshlarning ma’naviy salohiyatini oshirish, iqtidorli va iste’dodli bolalarining o‘z ijodlarini erkin namoyon etish va axborot almashish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari orqali maxsus internet dasturlarini ko‘proq tuzib, yoshlarga mo‘ljallangan turli mavzular bo‘yicha maqsadli loyiha va sohaviy tizimli dasturlarni tayyorlash va ularni doimiy tarzda yangilab borish maqsadga muvofiqliр.

Internet tizimidagi ijtimoiy tarmog‘lardan tarqatilayotgan turi yet g‘oyalar va axborotlarni yoshlar tomonidan qabul qilinayotganligi va uning oqibatlari jahondagi barcha mamlakatlari xalqini ham tashvishga solmoqda. Yoshlarimiz ongi, qalbi va ichki dunyosini egallahga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga, ma’naviyatimizga tajovuz qilishga urinayotgan g‘arazli kuchlarga qarshi doimo ogoh turishimiz darkor.

Ana shundagina bizni hech kim, hech narsa o‘z tanlagan yo‘limizdan ortga qaytara olmaydi va biz ko‘zlagan ulug‘vor maqsadlarimizga albatta yetamiz.

Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatning ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz zarur bo‘lsa, biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga, xalqimizning tinch va osuda hayotiga tahdid soladigan har qanday urinislarga qarshi keskin zarba berishga qodirmiz. Bir so‘z bilan aytganda, biz axborot xurujlariga qarshi yangicha fikrlashimiz, ishlashimiz darkor. Bunda tinchlik va barqarorlikni ta’minalash, o‘z xalqining xotirjam va farovon hayoti uchun yonib xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning o‘rni be’qiyos ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda harbiy xizmatchilar uchun katta sharoitlar yaratib berilgan mamlakatimizda harbiy xizmat nufuzini yuksaltirish va Qurolli Kuchlarimiz jangovar shayligini yanada oshirish maqsadida qo‘shin turlarini yosh va salohiyatli kadrlar bilan to‘ldirish, harbiy xizmatni o‘tash uchun qulay sharoitlar yaratish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari ijtimoiy himoyasini ta’minalash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Kuchli ijtimoiy himoya, o‘z navbatida, ofitser, serjant va askarlarimizning fidoyilik, burchga sadoqat bilan xizmat qilish, o‘zining professional tayyorgarligini oshirib borishi uchun zamin yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev. Sh.M. .Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. -T.: O’zbekiston. 2017. -326 b.
2. Safoeva. S. Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta’siri. // Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiy-huquqiy masalalari. -Toshkent: Falsafa va huquq nashriyoti, 2006, 27-bet.
3. Tashmetov, T. X. (2020). PROSPECTS FOR RELYING ON THE BASIS OF THE NATIONAL IDEA IN PROTECTING YOUNG PEOPLE FROM HARD AND HARMFUL IDEAS. International Journal For Innovative Engineering and Management Research, 9(11), 81-86.
4. www.ziyonet.uz
5. <http://uz.wikipedia.org/wiki>